

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

“Tasdiqlayman”

**Samarqand davlat
arxitektura-qurilish
universiteti rektori**

Ch.J.Turkyilmaz



“14” 06

2025-y

“Kelishildi”

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



“19”

2025-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

“Rangtasvir” va “Chizmachilik” fanlari

**60210400 – “Dizayn: Landshaft dizayni”
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

Toshkent – 2025

Dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti O'quv uslubiy kengashining 2025-yil 30 maydagi 5-son qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

M. Abdumannonov

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti,
"Arxitekrura" kafedrası dotsenti;

Sh. O'rinboyev -

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, "San'at"
kafedrası dotsenti;

Taqrizchilar:

A.N. Abdullayev

Samarqand davlat pedagogika instituti, "Tasviriy san'at
va texnologik ta'lim" kafedrası mudiri, dotsent

M.A. Aynaqulov

Jizzax politexnika instituti, "Muhandislik va kompyuter
grafikasi" kafedrası mudiri, dotsent.

KIRISH

Alohida iqtidor talab etiladigan 60210400 – “Dizayn: landshaft dizayni” bakalavr ta’lim yo’nalishi uchun imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta’lim yo’nalishlariga kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2018-yil 27-iyuldagi 588-son qarori asosida tayyorlangan.

Imtihon dasturi o‘rta maxsus va kasb-hunar kollejlardagi tasviriy san’at va chizmachilik fanlari asosida tuzilgan bo‘lib, abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Rangtasvirning grafik usullari asosida abituriyentlarning ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazish va qo‘yilma (natura)ni chizishga oid kompetensiyalarini baholash ularning rang sezish, ranglar uyg‘unligida tasvirni ifodalay olishini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

60210400 – “Dizayn: landshaft dizayni” yo’nalishi bo‘yicha tanlovda qatnashuvchi abituriyentlar “Rangtasvir” va “Chizmachilik” fanlaridan kasbiy (ijodiy) imtihon topshiradilar.

“Rangtasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan namuna 1-ilovaga muvofiq, “Chizmachilik” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan namuna 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

“Rangtasvir”ni bajarish “Dizayn: landshaft dizayni” ta’lim yo’nalishi talabalari uchun o‘quv jarayoni davomida alohida ahamiyatga ega bo‘lganligi va “Chizmachilik” esa talabalar tomonidan keyinchalik ham mustaqil ravishda o‘zlashtirilishi mumkinligini inobatga olgan holda kasbiy (ijodiy) imtihon ballarini quyidagicha taqsimlash maqsadga muvofiq:

Rangtasvir	93,0
Chizmachilik	63,0

I. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

“Rangtasvir” fani bo'yicha:

- abituriyent natura (natyurmort) ga e'tibor bergan holda rangtasvir faniga oid shakl va ranglarini to'liq ko'rsatib berishi;
- ranglar doirasi, ranglar qonuni to'g'risidagi tushunchalarga amal qilgan holda qo'yilgan natyurmortni rangda ishlash;
- ranglar oralig'idagi qarama - qarshilik, sovuq - issiq ranglar to'g'risidagi tasavvurni amalda qo'llay bilish;
- shaxsning individual, yetuklik davrida abituriyent rangtasvir qonuniyatlari orqali o'zining bilimini, sog'lom dunyoqarashini, badiiy san'atga bo'lgan qiziqishini, rangli bo'yoqlar, oddiy qalamlar va mo'yqalamlar kabi ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- fanning mazmunidan kelib chiqqan holda berilgan naturaga tegishli bo'lgan anjamlarni badiiy tasvirlash;
- ranglar texnologiyasini o'zlashtirish va bajarilayotgan vazifada namoyish etish kabi talablarni bajarishi lozim.

“Chizmachilik” fani bo'yicha:

- turli grafik texnika sohasidagi ishlar vositalari: grafik qalam, burchakli, gradusli, yoysimon chizg'ichlar, sirkul va boshqalar;
- geometrik shakllarning proyeksiyalash qonunlari, oldidan va ustidan ko'rinishlar asosida detalning uchinchi ko'rinishini yaratish, aksonometrik proyeksiyalar, chizmani joylashtirish haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- amaliyotda egallangan bilimlari asosida chizmachilik anjomlarini qo'llashni;
- o'lchamlarni qo'yish qoidalari;
- masshtablar, chiziqlar;
- detallar tasvirining geometrik asoslari, ko'rinishlar, qirqimlar, chizmalarda yozuvlar va belgilashlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- fazoviy hajmni qog'oz tekisligida grafik texnikada tasvirlash;
- nafaqat ko'rinadigan, balki detallarning ko'rinmas qismini tasvirlash;

– ijodiy fikrlab va ko‘rish qobiliyati orqali chizishni rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

II. “Rangtasvir” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonning baholash mezonlari

Vazifa: Maishiy buyumlardan tashkil topgan natyurmort yoki turli ranglarga ega oddiy buyumlar, gipsli rozetka, sopol va mis ko‘zalar hamda sabzavotlardan tuzilgan natyurmort qo'yiladi.

Natyurmort A3 formatdagi qog‘ozda qalam va akvarel bo‘yoqlaridan foydalangan holda bajariladi.

Vazifa: 4 (to‘rt) akademik soat (180 minut) davomida bajariladi.

Baholash tartibi	Ballar(max)
Natyurmortni qog‘oz formatiga nisbatan to‘g‘ri joylashtirish	10
Narsa va buyumlarning o‘zaro nisbatlarini to‘g‘ri topish (proporsiyasi)	14
Rang bilan ishlashda nur va soya qonuniyatlariga amal qilish	12
Naturani ishlashda rang munosabatlarini to‘g‘ri topish	12
Perspektiva (chiziqli va havo perspektivasi) qoidalariga amal qilish	14
Akvarel bo‘yog‘i texnikasidan to‘g‘ri foydalanish	18
Narsa va buyumlar fakturasi (mato, sopol, chinini, metal va boshqalar) to‘g‘ri ifoda etish	13
Jami maksimal ball:	93,0

III. “Chizmachilik” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonning baholash mezonlari

Vazifa: Chizmachilik fanidan ijodiy imtihonda berilgan detalning ikki ko‘rinishi bo‘yicha uchinchi ko‘rinishini topish va detalning aksonometrik (to‘g‘ri burchakli izometrik yoki to‘g‘ri burchakli dimetrik) proyeksiyasini yasash.

Topshiriq A-3 formatdagi vatman qog‘ozda bajariladi va u 63,0 ball bilan baholanadi.

Imtihon vaqti 2 (Ikki) akademik soat (90 minut).

Baholash tartibi	Ballar(max)
Detalning berilgan ikki ko'rinishi asosida uchinchi ko'rinishini topish va o'lchamlarni standart bo'yicha qo'yish	24
Detalning aksonometrik (to'g'ri burchakli izometrik yoki to'g'ri burchakli dimetrik) proyeksiyasini qurish	32
Chizmalarning grafik bajarilishi va qog'oz formatiga joylashtirilishi	7
Jami maksimal ball:	63,0

IV. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha apellyatsiya tartibi

To'plagan balidan norozi abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng 24 soat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat etish huquqiga ega. Appelyatsiya faqat abituriyentning o'z ishi natijalari bo'yicha ko'rib chiqiladi.

Eslatma.

Ijodiy imtihonga qatnashmagan abituriyentga qayta topshirishga imkoniyat berilmaydi va "0" ball bilan baholanadi.

Imtihon natijalari imtihon o'tkazilgan kunning ertasiga e'lon qilinadi.

V. Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh. Qobilov, "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi", "Fan va texnologiya", - 2014 y.
2. X. E. Egamov, "Rang tasvir", Toshkent – 2020 y.
3. U. Sh. Ismatov, "Rang tasvir", Chirchiq – 2020 y.
4. I. Rahmonov va boshqalar, "Chizmachilik (9 –sinf o'quvchilari uchun)", Toshkent, "O'zbekiston" – 2019 y.
5. Umronxo'jayev A, Djumanov Sh. "Mashinasozlik va qurilish chizmachiligi", O'qituvchi-2005 y.
6. I. Raxmonov "Chizma geometriyadan mashq va masalalar to'plami, Toshkent o'qituvchi 1992 y.
7. I. Raxmonov "Chizma geometriyadan grafik ishlar tizimi", Toshkent O'qituvchi 1996 y.



8. Sh.Abduraxmonov “Chizma” geometriya”, Aloqachi 2005 y
- 9.K.X Madumarov,A.A Norqulov “Texnik chizmachiligi “
Toshkent,o‘qituvchi” 2004 y.
- 10.Yu.I.Koroyev “Quruvchilar uchun chizmachilik” Toshkent ,O‘qituvchi
nashriyot. 1981 iil.








Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
1-ilova

**“Rangtasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan
NAMUNA**

**Vazifa: Maishiy buyumlardan tashkil topgan natyurmort yoki turli ranglarga
ega oddiy buyumlar, gipsli rozetka, sopol va mis ko‘zalar hamda sabzavotlardan
tuzilgan natyurmort.**

Namunalar:





Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
2-ilova

**“Chizmachilik” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan
NAMUNA**

Vazifa: Chizmachilik fanidan ijodiy imtihonda berilgan detalning ikki ko‘rinishi bo‘yicha uchinchi ko‘rinishini topish va detalning aksonometrik (to‘g‘ri burchakli izometrik yoki to‘g‘ri burchakli dimetrik) proyeksiyasini yasash.

Namunalar:

